

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исломиiddинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Innovatsion iqtisodiyot mohiyati va rivojlantirish usullari

Gafurova Lola Ruyiddinovna

Суть инновационной экономики и методы ее развития

Гафурова Лола Руиддиновна

The essence of innovative economy and methods of its development

Gafurova Lola Ruiddinovna

Received: May 15, 2025 Revised: May 16, 2025 ■ Accepted: May 19, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya.** Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyot tushunchasi va uning zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni yoritilgan. Innovatsion iqtisodiyotning asosiy xususiyatlari, nazariy asoslari va uni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydigan omillar tahlil qilingan. Shuningdek, dunyo tajribasi hamda O'zbekiston misolida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish strategiyalari ko'rib chiqilgan. Maqolada innovatsiyani rag'batlantirishga qaratilgan samarali usullar va kelajakdagi tendensiyalar ham o'z aksini topgan.
- **Kalit so'zlar.** Innovatsion iqtisodiyot, innovatsiya, raqobatbardoshlik, texnologik rivojlanish, iqtisodiy o'sish, startup ekotizimi, davlat siyosati, raqamli transformatsiya, O'zbekiston iqtisodiyoti.
- **Абстракт.** В статье рассматривается концепция инновационной экономики и ее роль в современном экономическом развитии. Проанализированы основные характеристики, теоретические основы и факторы, играющие важную роль в развитии инновационной экономики. Также были рассмотрены стратегии построения инновационной экономики на основе мирового опыта и примера Узбекистана. В статье также отражены эффективные методы и будущие тенденции, направленные на стимулирование инноваций.
- **Ключевые слова.** Инновационная экономика, инновации, конкурентоспособность, технологическое развитие, экономический рост, стартап-экосистема, государственная политика, цифровая трансформация, экономика Узбекистана.
- **Abstract.** The article examines the concept of an innovative economy and its role in modern economic development. The main characteristics, theoretical foundations and factors that play an important role in the development of an innovative economy are analyzed. Strategies for building an innovative economy based on global experience and the example of Uzbekistan are also considered. The article also reflects effective methods and future trends aimed at stimulating innovation.
- **Keywords:** Innovative economy, innovation, competitiveness, technological development, economic growth, startup ecosystem, public policy, digital transformation, economy of Uzbekistan.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv sharoitida iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda innovatsiyalarning roli tobora ortib bormoqda. An'anaviy iqtisodiyot modelidan farqli o'laroq, innovatsion iqtisodiyot ilmiy tadqiqotlar, texnologik yangiliklar va bilimga asoslangan ishlab chiqarish ustuvorligini ta'minlaydi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 21-asrda iqtisodiy o'sishning 50 foizidan ortig'i innovatsiyalarga to'g'ri kelmoqda, bu esa zamonaviy iqtisodiy tizimlarda innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytiradi. Innovatsion iqtisodiyot konsepsiyasi dastlab XX asr oxirlarida shakllangan bo'lib, uning asosiy nazariy asoschilari sifatida Yozef Shumpeter, Kristofer Freeman va Richard Nelson kabi olimlar tilga olinadi. Shumpeter o'zining "yaratuvchi buzilish" (creative destruction) nazariyasi orqali iqtisodiy rivojlantirishning asosiy omili sifatida doimiy innovatsiyalarni ko'rsatgan. Bugungi kunda innovatsiyalar faqat texnik yangiliklar bilan cheklanmay, balki biznes-modellar, xizmat ko'rsatish turlari, menejment yondashuvlari va ijtimoiy tizimlarda ham chuqur o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Davlatlar uchun innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish nafaqat yangi mahsulot va texnologiyalar yaratish, balki ijtimoiy farovonlikni oshirish, bandlikni rag'batlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning ham muhim omili hisoblanadi. Masalan, Global Innovation Index (GII) 2024 yilgi hisobotiga ko'ra, Shveysariya, Shvetsiya va AQSh kabi davlatlar innovatsion ko'rsatkichlar bo'yicha yetakchilik qilmoqda. Ushbu davlatlarning tajribasi innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun qulay muhit – kuchli ta'lim tizimi, ilmiy tadqiqotlarga sarmoya, intellektual mulkni himoya qilish va raqobatbardosh infratuzilmani talab qilishini ko'rsatmoqda. O'zbekiston ham oxirgi yillarda innovatsion rivojlanishga alohida e'tibor qaratmoqda. 2018-yilda "Innovatsion rivojlanish vazirligi"ning tashkil etilishi, "Yangi O'zbekiston - 2030" strategik dasturida ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishga alohida ustuvorlik berilishi bunga misoldir. Shunga qaramay, innovatsion iqtisodiyotga o'tish uchun hali ham tizimli islohotlar, xususan, ta'lim va ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish, startaplar va texnologik kompaniyalarni rag'batlantirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda innovatsion iqtisodiyotning nazariy va amaliy asoslarini yoritish uchun tahlil, sintez, qiyosiy tahlil, empirik kuzatuv va statistik ma'lumotlarni o'rganish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot quyidagi asosiy bosqichlar asosida olib borildi.

Nazariy asoslarni o'rganish: Innovatsion iqtisodiyot tushunchasi va rivojlanish mexanizmlari Yozef Shumpeterning "yaratuvchi buzilish" (creative destruction) nazariyasi, Kristofer Freeman va Richard Nelsonning innovatsion tizimlar nazariyasi asosida tahlil qilindi. Xalqaro tajribani tahlil qilish: Shveysariya, AQSh, Janubiy Koreya va Skandinaviya davlatlarining innovatsion rivojlanish tajribasi o'rganildi. Ularning ta'lim tizimi, ilmiy tadqiqotga sarmoya jalb qilish, startap ekotizimi va davlat siyosati orqali innovatsiyalarni qanday rag'batlantirayotgani qiyosiy tahlil qilindi. Empirik ma'lumotlarni tahlil qilish. Global Innovation Index 2024 hisobotidagi ko'rsatkichlardan foydalanildi. Bu hisobotda O'zbekistonning innovatsion salohiyati ham ko'rib chiqilgan bo'lib, respublika so'nggi uch yilda 10 pog'ona yuqorilangani qayd etilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon bankining 2023 yilgi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda ilm-fan va texnologiyalar sohasiga ajratilayotgan investitsiyalar hajmi 2017-yildan 2023-yilgacha 2,5 baravarga oshgan. 2024 yil mart oyida Toshkentda "Innovatsiya va Texnologiyalar Haftaligi" o'tkazildi, unda 20 dan ortiq startap loyihalari xalqaro investorlar e'tiboriga havola etildi. O'zbekistondagi innovatsion siyosat va tashabbuslarni o'rganish. Innovatsion rivojlanish vazirligi 2018 yilda tashkil etilgan va 2021-2023 yillarda "Innovatsion rivojlanish strategiyasi" qabul qilindi. Ushbu strategiyada ilmiy tadqiqotlar uchun ajratiladigan YAIMdagi ulushni 2030 yilgacha 2% ga yetkazish vazifasi qo'yilgan. 2022 yilda "InnoWeek Uzbekistan" xalqaro innovatsion forumida 30 dan ortiq xorijiy va mahalliy texnologik kompaniyalar ishtirok etdi. 2023 yilda "Startup Initiatives" dasturi doirasida O'zbekistonda 100 dan ortiq innovatsion startaplar moliyaviy ko'mak oldi. Milliy kontekstda mavjud muammolar va imkoniyatlar tahlili. O'zbekistonda hali ham ilmiy tadqiqot institutlari moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish, intellektual mulkni himoya qilish tizimini takomillashtirish va innovatsion startaplar uchun qulay ekotizim yaratish borasida sezilarli ehtiyoj mavjud. Tadqiqot davomida statistik ma'lumotlarning ishonchligi uchun rasmiy hisobotlar, xalqaro tashkilotlarning reytinglari va hukumat tomonidan tasdiqlangan dasturlar asos sifatida olindi. Shuningdek, maqolada so'nggi yillarda O'zbekistonda innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar ham maxsus tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari innovatsion iqtisodiyotning zamonaviy iqtisodiy tizimdagi o'rni va uni rivojlantirishning muhim

usullarini quyidagi asosiy yo'nalishlarda yoritdi.

1. Innovatsion iqtisodiyotning asosiy belgilari aniqlab olindi. Innovatsion iqtisodiyot ishlab chiqarish jarayonlarida doimiy texnologik yangilanish va bilimlarga asoslangan rivojlanishning ustuvorligini ta'minlaydi. Bilim va axborot asosiy iqtisodiy resurslar sifatida qadrlanadi. Raqobat ustunligi innovatsion mahsulot va xizmatlar yaratish orqali qo'lga kiritiladi.

2. Dunyo tajribasidan olingan asosiy xulosalar. Global Innovation Index 2024 ma'lumotiga ko'ra, Shveytsariya, Shvetsiya va AQSh innovatsiyaga eng yuqori darajada sarmoya kiritayotgan davlatlar bo'lib qolmoqda. Ilmiy tadqiqotlarga investitsiya darajasi bevosita iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sir qilmoqda: Shvetsiyada ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga YAIMning 3,4% ajratilgan va bu davlatni texnologik yetakchi davlatga aylantirgan.

3. O'zbekiston kontekstida aniqlangan natijalar. O'zbekistonda innovatsion rivojlanishga e'tibor so'nggi besh yil ichida sezilarli darajada oshgan. Jumladan:

2018 yilda Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi. 2023 yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga ajratilgan mablag' hajmi 2017 yilga nisbatan 2,5 baravarga oshdi. "Startup Initiatives" dasturi orqali 2023 yilda 100 dan ortiq startap loyihalari moliyalashtirildi. Global Innovation Indexda O'zbekiston 2020 yilda 93-o'rinda bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda 83-o'ringa ko'tarildi. 2024 yilda Toshkentda "Innovatsiya va Texnologiyalar Haftaligi" o'tkazilib, bu anjumanda 20 dan ortiq mahalliy va xalqaro startaplar o'z ishlanmalarini taqdim etdi.

4. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish usullari quyidagiligi aniqlangan. Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga (R&D) davlat va xususiy sektor sarmoyalarini oshirish. Ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy texnologiyalar va tadbirkorlik ko'nikmalariga moslashtirish. Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish: texnoparklar, innovatsion markazlar va inkubatorlarni kengaytirish. Intellektual mulk huquqlarini kuchaytirish va ixtirolarni tijoratlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish. Startap ekotizimini rivojlantirish uchun soliq imtiyozlari va grant dasturlarini kengaytirish.

5. Muammolar va cheklovlar. Ilmiy tadqiqot institutlarining texnik bazasi va innovatsion infratuzilmaning ba'zi sohalarda zaifligi. Innovatsion madaniyat va raqamli savodxonlik darajasi hali to'liq rivojlanmagan. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda xususiy sektor ishtirokining nisbatan pastligi. Ushbu natijalar shuni ko'rsatdiki, innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston uchun esa bu yo'lda amalga oshirilayotgan islohotlar ijobiy natijalar bermoqda, ammo yanada jadal taraqqiyot uchun chuqurroq tizimli islohotlar zarur.

Innovatsion iqtisodiyot bugungi global raqobat muhitida

davlatlarning iqtisodiy barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanishi uchun asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, rivojlangan davlatlar innovatsiyani iqtisodiyotning barcha sohalariga chuqur integratsiya qilish orqali yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishgan. Dunyo tajribasidan ko'rinadiki, innovatsion rivojlanishni ta'minlash uchun ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga (R&D) investitsiyalarni ko'paytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va qulay innovatsion muhit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Shvetsiya va Janubiy Koreya misolida davlat tomonidan startap ekotizimini qo'llab-quvvatlash va innovatsion infratuzilmani rivojlantirish muhim rol o'ynagan. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish yo'lida sezilarli ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda. So'nggi yillarda Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar, startaplar uchun moliyaviy ko'mak, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar milliy innovatsion tizimning shakllanishiga xizmat qilmoqda. Jumladan, 2023-2024 yillarda ilmiy-tadqiqot loyihalariga ajratilgan mablag' hajmining oshishi, global innovatsion reytingda O'zbekistonning o'rnining yaxshilanishi bunga yorqin misol bo'la oladi. Biroq, mavjud muammolar ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Xususan, ilmiy muassasalarning texnik bazasining eskiligi, intellektual mulk huquqlari tizimining yetarli darajada rivojlanmagani, innovatsion faoliyatga xususiy sektor ishtirokining pastligi kabi omillar innovatsion iqtisodiyot rivojiga ma'lum darajada to'sqinlik qilmoqda. O'zbekiston uchun innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy e'tibor ta'lim va ilm-fan integratsiyasini kuchaytirish, yosh olimlar va tadbirkorlar uchun qulay muhit yaratish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqaro tajribadan faol foydalanishga qaratilishi zarur. Ayniqsa, mintaqaviy texnoparklar va innovatsion klasterlarni rivojlantirish orqali hududlararo innovatsion tengsizlikni kamaytirish muhim vazifa sifatida qaralishi lozim. Umuman olganda, O'zbekiston innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish yo'lida to'g'ri yo'nalishda harakat qilmogda. Kelgusida bu jarayonni tezlashtirish uchun strategik rejalashtirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va innovatsion madaniyatni rivojlantirish kabi yo'nalishlar ustida izchil ish olib borish zarur.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar va natijalar shuni ko'rsatdiki, innovatsion iqtisodiyot zamonaviy jamiyatda nafaqat iqtisodiy o'sish, balki barqaror rivojlanishning ham kalit omili hisoblanadi. Innovatsiyalar ilm-fan va texnologiyaga asoslangan ishlab

chiqarish tizimlarini yaratish, yangi mahsulot va xizmatlar ishlab chiqish orqali iqtisodiyotga sifat jihatidan yangi impuls beradi. Dunyo tajribasidan ko'rinib turibdiki, innovatsion salohiyatni kuchaytirish iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshiradi va ijtimoiy farovonlikni ta'minlaydi. O'zbekiston misolida qaraganda, 2018 yildan buyon Innovatsion rivojlanish vazirligining faoliyati, startaplar uchun moliyaviy va infratuzilma ko'maklari, ilmiy-tadqiqot loyihalariga ajratilgan mablag'larning oshishi ijobiy tendensiyani yuzaga chiqarmoqda. Global Innovation Indexdagi ko'rsatkichlarning yaxshilanishi (93-o'randan 83-o'ringa ko'tarilish) esa mamlakatda innovatsion faoliyatning asta-sekin faollashayotganidan dalolat beradi. Biroq, mavjud imkoniyatlarga qaramay, ayrim cheklovchi omillar saqlanib qolmoqda. Xususan, ilmiy tadqiqot institutlarining texnik bazasining zamonaviy talablar darajasida emasligi, xususi sektor innovatsiyaga sarmoya kiritish madaniyatining pastligi va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlarining sustligi innovatsion rivojlanishni sekinlashtirayotgan omillar sirasiga kiradi.

Shu o'rinda quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin.

Ilm-fan va innovatsiyalarni real sektorga integratsiya qilishni kuchaytirish. Buning uchun ilmiy ishlanmalarning tijoratlashtirilishini rag'batlantiruvchi qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish zarur. Innovatsion startaplar va texnoparklar sonini oshirish, ayniqsa mintaqaviy markazlarda ularni rivojlantirish orqali hududlararo innovatsion tengsizlikni kamaytirish lozim. Xususi sektor ishtirokini rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari va moliyaviy ko'mak mexanizmlarini kengaytirish, innovatsion loyihalarga sarmoya kiritgan tadbirkorlarga qo'shimcha preferensiyalar berish samarali bo'ladi. Innovatsion madaniyatni shakllantirish uchun ta'lim tizimiga kreativlik, tadbirkorlik va texnologik savodxonlikni rivojlantiruvchi dasturlarni keng joriy etish zarur. Xalqaro ilmiy hamkorlik va texnologik transferni rivojlantirish orqali O'zbekiston innovatsion infratuzilmasini global tendensiyalarga mos ravishda rivojlantirish mumkin. Shaxsan mening fikrimcha, O'zbekiston o'zining tabiiy va inson resurslari salohiyatidan maksimal darajada foydalanib, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish orqali nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham o'zining iqtisodiy pozitsiyasini mustahkamlashi mumkin. Buning uchun esa innovatsiyalarni rivojlantirishda uzluksiz va tizimli yondashuv asosiy ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Gafurova Lola Ruyiddinovna Qarshi Davlat Texnika Universiteti assistenti / Гафурова Лола Руиддиновна Ассистент Каршинского государственного технического университета / Gafurova Lola Ruididinovna Assistant of Karshi State Technical University

► gafurovalola208@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0006-9783-8468>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2017). "Innovatsion rivojlanish sohasida yangi yondashuvlarni joriy etish to'g'risida" qaror. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Toshkent
- [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). "O'zbekiston Respublikasida ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalarni rivojlantirishga oid davlat siyosatini takomillashtirish to'g'risida" qaror. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Toshkent.
- [3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). "O'zbekiston Respublikasida innovatsion startaplar va texnoparklarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" qaror. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Toshkent.
- [4]. Global Innovation Index (2024). (2024). Global Innovation Index 2024: Accelerating Innovation. World Intellectual Property Organization (WIPO), Cornell University, INSEAD.
- [5]. Shvetsiya Innovatsiya va Texnologiya Vazirligi. (2023). Shvetsiyada innovatsion faoliyat va ilmiy tadqiqotlar sohasida amalga oshirilgan islohotlar. Stockholm.
- [6]. Shvetsiya Innovatsiya va Texnologiya Vazirligi. (2023). Shvetsiyaning ilm-fan va texnologiya rivojlanishiga sarmoya kiritish bo'yicha strategiyasi. Stockholm.
- [7]. O'zbekiston Innovatsion rivojlanish vazirligi. (2023). Innovatsion iqtisodiyot va startaplarni rivojlantirish bo'yicha 2023-2024 yillardagi asosiy chora-tadbirlar. Toshkent.